
YOSHLAR BILAN UCHRASHUV

Harbiy vatanparvarlik oyligi munosabati bilan joylarda turli tadbirlar, uchrashuv, davra suhbatlari o'tkazilmoqda.

Farg`ona shahrida joylashgan harbiy qismda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, o'g`lonlarimiz qalbida jasorat, mardlik va shijoat kabi fazilatlarni shakllantirish, harbiy xizmatga bo'lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida Sharqiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni T.Irgashevning yoshlar bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Qo'mondon yoshlarga Qurolli Kuchlarimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, harbiy xizmatchilarga yaratilayotgan shart-sharoit va imtiyozlar to'g`risida ma'lumot berdi. So'ngra ularni harbiy qismdagi maxsus mashg`ulot xonalaridagi sharoit bilan tanishtirdi.

Okrug qo'mondoni bilan uchrashuv yigitlarga juda manzur bo'ldi. Samimiy va jonli muloqot ularning sharafligina bo'lgan hurmatini yanada oshirib, kelajakda ular ham harbiy akalari qatoriga qo'shilib, ona yurtimizni himoya qilishni ko'ngillariga tugib qo'yishdi.

Yoshlarning qo'mondon bilan uchrashuvi taassurotlarga boy tarzda kechdi. Uchrashuv ularning hayotida o'chmas iz qoldirgani shubhasiz. Bu kabi tadbirlar kelajakda o'zining ijobiy samarasini berishiga ishonamiz.

Dilfuza JAKBAROVA,

Farg`ona garnizoni

Ofisterlar uyi kutubxona mudirasi.

2017-12-27 16:42:16